



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2

2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Sevinch Shomurot qizi Arziyeva Gilam ishlab chiqarish korxonalarida iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish va marketing qarorlarida qo'llash	147
Xilola Nematovna Ochilova, Mirzohid Azamat o'g'li Iskandarov Boshqaruvda menejment tamoyillarining o'rni, ahamiyati va zaruriyati	151
Nigina Marupovna Usmanova Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni hamda holat tahlili	155
INNOVATSIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOT	
Xayrulla Qilichovich Qarshiboyev Iqtisodiy jarayonlarni modellash tirishda chiziqli regressiya modelidan foydalanish	162
Malika Axmad qizi Qurbonova Hududiy boshqaruvda raqamli iqtisodiyot samaradorligini ekonometrik baholash	166
Nargiz Toxirovna Sattarova Mintaqaviy tadbirkorlik subyektlarini raqamli ekotizimga integratsiyalash orqali hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash	169
Gullola Mirkamolovna Toxirova Savdo korxonalarida innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik	172
Sanjar Safarovich Bazarov Iqlimga moslashuvchan asalarichilikni rivojlantirishda raqamli monitoring tizimlarini baholash	175
MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT	
Shavkat Sobirovich Oltayev Milliy iqtisodiyot taraqqiyotida eksport faoliyatining ahamiyati	180
Nargiza Muzafarovna Babaeva Mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi roli	183
BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT	
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 5-сон МХХС стандарти асосида активлар ҳисобини юритиш	191
Jahongir Bakhodirovich Ergashev Savdo korxonalari iqtisodiy samaradorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish	194
Давлат Комилов Уразов Актуальные вопросы трактовки, классификации и оценки качества аудиторских услуг	198
Asror Maxmanazar o'g'li Yusupov Qo'shma korxonalarda aktivlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etishning o'ziga xos jihatlari	205
Alisher Bobaqulovich Ravshanov Chorvachilik xo'jaliklarida qoramollarni hisobga olish muammolari	210
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati samaradorligini kompleks iqtisodiy tahlil qilish va baholashning zamonaviy yondashuvlari	215
TA'LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA	
Farrux Shadiyorovich Shanazarov Ta'lim va ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini shakllantirishdagi o'rni	218
Зулфия Самиевна Ганиева, Лазиз Абдирашидович Наврузов Социально-когнитивные механизмы формирования математических компетенций: синтез идей Л.С. Выготского и принципов RIE	223
E'TIBORGA MOLIK MASALALAR	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Жамоада яхши етакчининг борлиги – жамоанинг бахти	227

Jahongir Bakhodirovich Ergashev – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Marketing” kafedrası tayanch doktoranti

SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI MOLİYAVIY KO‘RSATKICHLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada savdo korxonalarida savdo faoliyatining iqtisodiy samaradorligini moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqotda iqtisodiy samaradorlik tushunchasining nazariy asoslari yoritilib, savdo korxonalarida samaradorlikni baholashning asosiy mezonlari - savdo aylanmasi, xarajatlar darajasi, rentabellik, sof foyda va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy samaradorlik, savdo korxonasi, moliyaviy ko‘rsatkichlar, savdo aylanmasi, rentabellik, xarajatlar, moliyaviy barqarorlik, chakana savdo, ulgurchi savdo, Balanced Scorecard (BSC), raqobatbardoshlik.

Kirish. Savdo korxonalarining tovar ta‘minot jarayoni tashkil etish uchun korxonalar savdo faoliyatining iqtisodiy samaradorligini hamda moliyaviy ko‘rsatkichlarni to‘g‘ri tahlil qilishimiz lozim. Iqtisodiy samaradorlik - bu xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining natijalari bilan unga sarflangan resurslar o‘rtasidagi nisbatni ifodalovchi iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy samaradorlik minimal xarajatlar evaziga maksimal natijaga erishish darajasini anglatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy samaradorlik korxonaning raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi muhim ko‘rsatkichdir. Samaradorlik nafaqat foyda miqdori bilan, balki rentabellik, resurslardan foydalanish darajasi, kapital aylanish tezligi va moliyaviy barqarorlik kabi ko‘rsatkichlar orqali ham baholanadi.

Savdo korxonalarida iqtisodiy samaradorlik asosan tovar aylanish hajmi, savdo ustamasi, xarajatlar darajasi va sof foyda ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi. Shu bois, iqtisodiy samaradorlikni to‘g‘ri baholash korxona boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqot natijasida korxonalarda savdo faoliyatining iqtisodiy samaradorligini va moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari o‘rganildi.

Xorijiy olimlar T. B. Biggart, L. L. Burney, R. Flanagan, va J. W. Hardenlar o‘zlarining ilmiy izlanishlarida chakana savdo sohasida moliyaviy ko‘rsatkichlarni baholash raqobatbardoshlik va uzoq muddatli barqarorlikni saqlash uchun muhimligini ta‘kidlagan. Bundan tashqari, an‘anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar ko‘pincha biznes operatsiyalarini to‘liq qamrab olmasligi sababli, kompaniyalar moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlarni yaxlit ko‘rinish va yaxshiroq qaror qabul qilish uchun birlashtirgan muvozanatli ko‘rsatkichlar kartasini (BSC) qabul qilishni boshladilar. BSC moliyaviy, mijozlar, ichki jarayonlar va o‘rganish kabi istiqbollarni o‘z ichiga oladi, ular moslashuvchan va keng qamrovli yondashuv orqali chakana ko‘rsatkichlarni yaxshilashi isbotlangan [1].

Osiyo mintaqasining mashhur olimlardan Chen X, va Li Z, o‘larining ilmiy tadqiqotlarida sun‘iy intellekt, narsalar interneti, katta ma‘lumotlar va elektron tijoratning rivojlanishi bilan omni-kanal chakana savdosi va avtomatlashtirish chakana sanoatni isloh qilish tendensiyasiga aylandi [2]. Yana bir xorijlik olim, [Yunus Emre Kahraman](#) chakana savdo-bu butun dunyoda jadal rivojlanishni ko‘rsatadigan va ishlab chiqarish sohasining muhim qismini tashkil etadigan sektor. Chakana savdo sektori iste‘molchilar talabiga binoan korxonalar tomonidan mahsulotlarni alohida yoki oz miqdorda taklif qilish deb ta‘riflanishi mumkin. Raqobat kuchli bo‘lgan ushbu sohada marketing faoliyati yangi mijozlarni jalb qilish va mavjud mijozlarni saqlab qolish uchun katta ahamiyatga ega ekanligini o‘zining ilmiy qarashlarida namayon etgan [3].

Mahalliy tadqiqotchilarimizdan Umirov U va Sobirova O o‘zlarining ilmiy nazariyalarida bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, uning moliyaviy barqarorligi va samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir. Korxonaning moliyaviy holati – bu uning xo‘jalik faoliyati natijalarini ifodalovchi, moliyaviy resurslardan qay darajada oqilona va samarali foydalanayotganini ko‘rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi

globalashuv va raqobat kuchaygan davrda, korxonalar faoliyatining natijadorligini faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholash zarur bo'lib qolmoqda [4]. Savdo korxonalarining samaradorligi iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirish va ilmiy natijalarga erishishda ilmiy izlanishlar olib borilib, adabiyotlar tahlili, statistik tahlillar, dinamik qatorlar imkoniyatlari, korxonalarning savdo faoliyatini chuqur o'rganish va uning iqtisodiy samaradorligini va moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda turli metodlar va yondashuvlar qo'llaniladi, ularning har biri maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. 2020-2024-yillarda O'zbekistonda ulgurchi va chakana savdo korxonalarining savdo hajmi ortib bordi. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasining “O'zbekistonda savdo” ma'lumotnomasi shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda ulgurchi savdo hajmi jihatdan Samarqand viloyati 3 o'rinni egallagan (1-jadval). Chakana savdo faoliyatining savdo hajmi jihatdan ham Samarqand viloyati 3 o'rinni egallagan (2-jadval). Biroq Farg'ona viloyati bilan orasida tafavut katta emas. Aynan nima uchun Samarqand viloyatiga urg'u berilgan, chunki keyingi tahlilda ushbu hududda joylashgan ham ulgurchi ham chakana savdo korxonalarni tahlil qilinadi. Nurli zamin” va “Sherzod zoovet malham” MCHJ korxonalari ulgurchi savdo korxonalari hisoblanadi. “Sam Sifat Plus” va “Arsh 313 savdo baraka” MCHJ korxonalari esa chakana savdo korxonasi hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida ulgurji savdo hajmi, mlrd. so'm[6]

Hududlar nomi	2020	2021	2022	2023	2024
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 142,6	2 402,1	3 626,8	4 718,5	6757,0
Andijon	3 719,3	4 283,9	6 314,0	8 652,7	13 321,3
Buxoro	4 598,6	6 991,6	13 450,9	13 747,5	18 023,9
Jizzax	2 249,8	2 289,1	3 522,3	3 189,4	5 539,8
Qashqadaryo	3 084,9	3 768,0	6 158,3	6 678,1	8 844,5
Navoiy	1 906,4	2 025,8	3 284,3	3 849,1	4 852,7
Namangan	5 087,5	7 168,7	9 457,7	12 791,5	18 548,4
Samarqand	7 068,8	9 316,2	12 954,1	20 690,4	27 235,6
Surxondaryo	3 923,8	5 079,3	5 767,1	6 716,4	10 969,4
Sirdaryo	2 181,1	2 646,4	3 530,7	4 793,6	6 671,4
Toshkent	12 291,1	14 302,1	25 982,3	35 240,7	52 714,5
Farg'ona	7 910,5	11 050,2	15 988,1	19 394,7	25 732,3
Xorazm	3 103,1	3 937,6	6 053,3	7 124,1	9 033,0
Toshkent shahri	70 994,5	107 851,3	142 354,1	182 476,3	247 099,5
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha	130 262,0	183 112,3	258 444,0	330 063,0	455 343,2

2-jadval

2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida chakana savdo hajmi, mlrd. so'm[7]

Hududlar nomi	2020	2021	2022	2023	2024
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 861,8	7 582,5	9 557,9	11 392,6	13 683,7
Andijon	14 810,1	15 376,3	19 046,9	22 770,8	27 518,3
Buxoro	12072,8	12 747,1	15 522,0	18 167,1	22 101,5
Jizzax	7 510,7	6 472,8	7 995,4	9 516,8	11 590,6
Qashqadaryo	13 523,9	14 399,4	18 165,9	21 781,7	26 071,1
Navoiy	7 922,8	8 091,6	10 101,6	12 356,0	15 000,0
Namangan	12 233,8	13 541,9	17 273,1	20 665,8	25 081,2

Samarqand	16 816,8	19 882,0	25 342,5	30 196,5	35 916,8
Surxondaryo	12 545,8	13 737,4	17 428,5	20 845,7	24 883,2
Sirdaryo	3 296,6	3 800,3	4 453,7	5 239,2	6 495,4
Toshkent	20 808,1	20 389,1	25 250,0	30 872,1	38 662,8
Farg‘ona	16 414,8	18 850,0	22 448,5	27 781,8	35 002,4
Xorazm	8 589,2	8 869,9	11 317,2	13 412,3	16 083,6
Toshkent shahri	46 111,6	52 954,5	66 784,0	85 449,9	105 341,3
O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha	199 518.8	216 694.6	270 687.2	330 448.1	403 431,8

3-jadval


Savdo korxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili

Korxona nomi	Savdo aylanmasi (mln. so‘m)	Xarajatlar (mln. so‘m)	Foyda (mln. so‘m)	Foyda rentabelligi %	Foyda marjasi %
2021 yil					
“Nurli zamin” MCHJ	2 284,49	2 175,93	108,56	4,98	4,75
“Sherzod zoovet malham” MCHJ	2 358,68	2 237,47	121,21	5,41	5,14
“Sam Sifat Plus” MCHJ	669,95	662,42	7,53	1,13	1,12
“Arsh 313 savdo baraka” MCHJ	976,54	929,24	47,30	5,09	4,84
2022 yil					
“Nurli zamin” MCHJ	2 954,36	2 808,97	145,39	5,17	4,92
“Sherzod zoovet malham” MCHJ	3 247,14	3 066,52	180,62	5,89	5,56
“Sam Sifat Plus” MCHJ	1 400,81	1 323,51	77,3	5,84	5,52
“Arsh 313 savdo baraka” MCHJ	1 058,91	1 004,54	54,37	5,41	5,13
2023 yil					
“Nurli zamin” MCHJ	3 532,31	3 351,62	180,69	5,39	5,12
“Sherzod zoovet malham” MCHJ	3 837,45	3 621,17	216,28	5,97	5,64
“Sam Sifat Plus” MCHJ	3 283,54	3 231,72	181,19	5,60	5,52
“Arsh 313 savdo baraka” MCHJ	1 218,74	1 156,03	62,71	5,42	5,15
2024 yil					
“Nurli zamin” MCHJ	3 858,61	3 645,09	213,52	5,85	5,53
“Sherzod zoovet malham” MCHJ	4 704,23	4 423,67	280,56	6,34	5,96
“Sam Sifat Plus” MCHJ	4 178,97	3 968,48	210,49	5,04	5,30
“Arsh 313 savdo baraka” MCHJ	1 369,81	1 298,08	71,73	5,52	5,24
2025 yil					
“Nurli zamin” MCHJ	4 021,18	3 748,54	272,64	7,27	6,78
“Sherzod zoovet malham” MCHJ	5 104,35	4 739,18	365,17	7,70	7,15
“Sam Sifat Plus” MCHJ	7 198,68	6 838,16	360,52	5,27	5,01
“Arsh 313 savdo baraka” MCHJ	1 542,18	1 463,81	78,37	5,35	5,08

3-jadval ma’lumotlari asosida 2021-2025-yillarda “Nurli zamin”, “Sherzod zoovet malham”, “Sam Sifat Plus” va “Arsh 313 savdo baraka” MCHJ **savdo korxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari biri** savdo aylanmasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Sam Sifat Plus” MCHJ korxonasining savdo aylanmasi o‘shir sur’ati Nurli zamin”, “Sherzod zoovet malham” va “Arsh 313 savdo baraka” MCHJ korxonalari savdo aylanmasidan keskin farq qiladi. Chunki, ushbu korxonaning savdo aylanmasining keskin o‘shirga asosiy sabablardan biri bu korxona shahar markazida joylashgan. Qolgan savdo korxonalarida ushbu davrda savdo hajmi asta sekin o‘shir borgan.

Boshqa tarafdin, xarajat nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, “Sam Sifat Plus” MCHJ korxonasi eng yuqori xarajatga ega. “Arsh 313 savdo baraka” MCHJ korxonasi esa bir tekis ya’ni savdo aylanmasida ham xarajat tomonlama bir xil o‘shir borgan. “Nurli zamin” va “Sherzod zoovet malham” MCHJ ulgurchi korxonalari esa xarajatlarni minimallashtirishga harakat qilgan.

	2021	2022	2023	2024	2025
“Nurli zamin	108,56	145,39	180,69	213,52	272,64
“Sherzod zo	121,21	180,62	216,28	280,56	365,17
“Sam Sifat I	7,53	77,3	181,19	210,49	360,52
“Arsh 313 si	47,3	54,37	62,71	71,73	78,37



1-rasm. 2021-2025-yillarda ulgurchi va chakana savdo korxonalarining foyda hajmini o'sish dinamikasi.

2021-2025-yillarda ushbu savdo korxonalarining foydasini tahlil qilindi. Natijada savdo aylanmsi keskin o'sishga erishgan “Sam Sifat Plus” MCHJ korxonasining foydasi hambarqaror emas. Chunki korxona 2021-yilda foyda eng past ko'rsatkichga ega, hatto foyda rentabelligi 1.13 %ga teng, foyda marjasi 1.12% ga teng. Biroq, 2022-2023-yillarda ushbu ko'rsatkichlar sezilarli darajada o'sganligini ushbu davrda o'rtacha foyda rentabelligi 5.44% foyda marjasi 5.34% ga teng. 2021-2025-yillarda “Nurli zamin”, “Sherzod zoovet malham”, va “Arsh 313 savdo baraka” MChJ savdo korxonalarining ushbu foyda rentabelligi va foyda marjasi o'sib borgan.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, savdo korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash bevosita moliyaviy ko'rsatkichlarni chuqur va tizimli tahlil qilishga bog'liqdir. Iqtisodiy samaradorlik korxonaning savdo hajmi, xarajatlar darajasi, savdo ustamasi, sof foyda va rentabellik ko'rsatkichlari orqali namoyon bo'ladi. Tahlillar asosida 2020–2024-yillarda O'zbekistonda ulgurchi va chakana savdo hajmlarining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgani aniqlandi. Hududlar kesimida Samarqand viloyati savdo hajmi bo'yicha yuqori o'rinlardan birini egallagani, ushbu hudud savdo infratuzilmasi va tadbirkorlik muhiti rivojlanganligini ko'rsatadi. Tanlangan korxonalar misolida 2021–2025-yillar davomida savdo aylanmasi va xarajatlar dinamikasi tahlil qilinib, quyidagi natijalarga erishildi:

Shu bilan birga, savdo aylanmasining o'sishi har doim ham yuqori samaradorlikni anglatmasligi, xarajatlar tarkibi va rentabellik ko'rsatkichlari bilan birgalikda baholanishi zarurligi aniqlandi. Savdo korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun moliyaviy ko'rsatkichlarni kompleks tahlil qilish, resurslardan oqilona foydalanish va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida olib borilgan izlanishlar natijasida korxonalarda sado faoliyatining iqtisodiy samaradorligi oshirish hamda moliyaviy ko'rsatkichlar tahlil qilish jarayoni uchun quyidagi takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqildi.

1.Savdo korxonalarida savdo aylanmasi, rentabellik, xarajatlar darajasi va likvidlik ko'rsatkichlarini muntazam ravishda tahlil qilib borish lozim.

2.Chakana savdo korxonalarida ijara, logistika va ma'muriy xarajatlarni kamaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

3.Savdo nuqtalarini joylashtirishda mijozlar oqimi va infratuzilma imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish tavsiya etiladi.

4.Savdo jarayonlarini avtomatlashtirish, elektron hisob-kitob va onlayn savdo platformalaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

5.Doimiy mijozlar bazasini kengaytirish, sodiqlik dasturlarini joriy etish savdo hajmining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T.B.Biggart, L.L.Burney, R.Flanagan, and J.W.Harden, “Is a balanced scorecard useful in a competitive retail environment?,” Manag. Account. Q., vol. 12, no. 1, 2010.

2. Chen X, Li Z. Scientific Measurement and Visualization Analysis of International Omni-channel Retailing Research (2011-2020)-Research on Knowledge Graph-Based on Co-word Analysis [J]. Journal of Physics: Conference Series, 2021, 1861(1): 012078 (7pp).

3. [Yunus Emre Kahraman](#) “A Financial Performance Evaluation in the Retail Sector with the MAIRCA and CRITIC Methods” Fiscaeconomia 2025 Volume: 9 Issue: 4, 2025.

4. Umirov U. Moliyaviy ko‘satkichlar asosida korxona samaradorligini baholash. “Innovations science and technologies” jurnali Volume: 2 No: 9, 2025

5. Sobirova O. Savdo korxonalarining samaradorligi iqtisodiy o‘shishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. “Yashil iqtisodiyotva taraqqiyot” jurnali Volume: 3 No: 4, 2025

6. O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasining “O‘zbekistonda savdo” ma‘lumotnomasi Tashkent-2025

7. O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasining “O‘zbekistonda savdo” ma‘lumotnomasi Tashkent-2025

Ж.Эргашев Анализ экономической эффективности торговой деятельности на торговых предприятиях на основе финансовых показателей	J.Ergashev Analysis of the economic efficiency of trade activities in trading enterprises on the basis of financial indicators
Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы анализа экономической эффективности торговой деятельности на предприятиях торговли на основе финансовых показателей. В исследовании освещены теоретические основы понятия экономической эффективности, проанализированы основные критерии оценки эффективности на торговых предприятиях - показатели оборота продаж, уровня затрат, рентабельности, чистой прибыли и финансовой устойчивости. Ключевые слова: экономическая эффективность, коммерческое предприятие, финансовые показатели, оборот, рентабельность, затраты, финансовая стабильность, розничная торговля, оптовая торговля, сбалансированная оценка (BSC), конкурентоспособность.	Abstract. This article explores the issues of analyzing the economic efficiency of trade activities in trading enterprises on the basis of financial indicators. The study covered the theoretical foundations of the concept of economic efficiency and analyzed the main criteria for assessing efficiency in trading enterprises - indicators of trade turnover, cost level, profitability, net profit and financial stability. Keywords: economic efficiency, trade enterprise, financial indicators, trade turnover, profitability, costs, financial stability, retail, timeshare trade, Balanced Scorecard (BSC), competitiveness.

Давлат Комилович Уразов – старший преподаватель СамИЭС

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТРАКТОВКИ, КЛАССИФИКАЦИИ И ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА АУДИТОРСКИХ УСЛУГ

Аннотация. В данной статье исследованы вопросы трактовки, классификации и оценки качества аудиторских услуг. В частности, на основе анализа научных подходов уточнено содержание понятия «качество аудиторских услуг», предложена классификация показателей качества и разработан сокращенный набор ключевых индикаторов их оценки. Для обобщающей оценки предложено использовать интегральный индекс качества аудита, основанный на нормировании частных показателей и применении весовых коэффициентов. Методика апробирована на материалах аудиторской организации ООО «Komil-Ishonch». Ключевые слова: аудит, аудиторские услуги, качество аудита, показатели качества, интегральный индекс, внутренний контроль качества, аудиторская организация.

Введение. В условиях развития рынка аудиторских услуг, внедрения международных стандартов аудита и усиления требований к достоверности финансовой отчетности особую актуальность приобретает вопрос обеспечения качества аудиторской деятельности. Качественно проведенный аудит способствует повышению доверия пользователей к

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.